

**O‘ZBEK ASARLARIDA FOLBIN TIMSOLI ORQALI IJTIMOY MUHIT IFODASI****Yusupova Diyora Oloviddin qizi****Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti****universitetining 3-kurs talabasi****yusupovadiyora0209@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.20116444>**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o‘zbek xalqining ma‘lum ijtimoiy-ma‘naviy muammolaridan biri - folbinlikka ishonch masalasi badiiy adabiyot namunalari asosida tahlil etiladi. Xususan, xalq orasida uchraydigan soddalik, yetarli bilim va ma‘rifatning sustligi, shuningdek, og‘ir hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri yechim topa olmaslik natijasida folbinlarga murojaat qilish holatlari yoritiladi. Muallif ushbu hodisaning diniy qarashlarga zid ekanini anglagan holda ham davom etayotganini badiiy tasvirlar orqali ochib beradi hamda o‘zbek adabiyotida bu muammoning ifodalanish uslublarini tahlil qiladi.

**Kalit so‘z:** Folbinlar, o‘zbek xalqi, bilimsizlik, an‘ana va e‘tiqod, xalq psixologiyasi

**Annotation:** This article analyzes one of the socio-spiritual issues of the Uzbek people - belief in fortune-telling - based on examples from literary works. In particular, it highlights cases of turning to fortune-tellers, which arise among people due to naivety, insufficient knowledge and education, as well as the inability to find proper solutions in difficult life situations. The author, while recognizing that this phenomenon contradicts religious beliefs, reveals through artistic depictions that it continues to persist, and examines the ways this issue is represented in Uzbek literature.

**Key words:** Fortune-tellers, Uzbek people, lack of knowledge, tradition and belief, folk psychology

**Аннотация:** В данной статье на основе художественных произведений анализируется одна из социально-духовных проблем узбекского народа - вера в гадание. В частности, освещаются случаи обращения к гадалкам, возникающие среди населения вследствие наивности, недостаточного уровня знаний и образования, а также неспособности найти правильное решение в сложных жизненных ситуациях. Автор, осознавая, что данное явление противоречит религиозным взглядам, с помощью художественных образов раскрывает его устойчивость и рассматривает способы отражения этой проблемы в узбекской литературе.

**Ключевые слова:** Гадалки, узбекский народ, недостаток знаний, традиции и убеждения (верования), народная психология

**Kirish:** Har qanday davrda ham xalqimiz orasida folbinlarga ishonuvchi qatlam vakillari mavjud bo‘lib kelgan. Bu holat, “guruch kurmaksiz bo‘lmaganidek” degan xalqona hikmatda o‘z ifodasini topadi. Mazkur ijtimoiy hodisa o‘z davrida yaratilgan badiiy asarlarda ham muayyan badiiy-estetik talqin orqali aks ettirilgan bo‘lib, ular orqali jamiyat ruhiyati va xalq ongidagi qarashlarni anglash mumkin.

Mana shunday millatning ilmsizlik natijasida yoxud ishonuvchanliklaridan folbinlar huzuriga yuguradigan qahramonlarni ifodalab beruvchi asarlar Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” romani, O‘tkir Hoshimovning “Oybaldoq” hikoyasi va Bayram Alining “Bosiriq” qissalaridir.

**Tahlil va mulohazalar:** O‘zbek bolalar adabiyotining yetuk namoyandasi Xudoyberdi To‘xtaboyevning Sariq devni minib asari qahramonlari o‘zining hayotiyliigi va badiiy

mukammalligi bilan kitobxon qalbidan chuqur o‘rin egallagan. Shu jihatdan, asarda muhim o‘rin tutuvchi obrazlardan biri - Soraxon folbin bo‘lib, uning faoliyati hamda Hoshimjon tomonidan berilgan jazo voqealari badiiy ta‘sir kuchi bilan o‘quvchilar xotirasida muhrlanib qolgan.

Asardagi voqealardan shuni kuzatish mumkinki, folga borgan insonlarni yosh jihatdan guruhga ajratganimizda, aksincha, o‘rta yoshdan yuqori qatlam vakillari tasvirlab berilgan. Hoshimjonning uydagilarining unga bildirgan ishonchi, unga beradigan sovg‘a salomiyu, ko‘rsatgan ehtiromi bir oila vakillarining ham turfa qarash vakillari ekanidan darakdir. Folbin darvozasi oldida turgan insonlarning tasviri ham achinarli bir ahvoldagi yettita xotin, beshta chol, uchta bola o‘tirishibdi. Hammasi ham kasal bo‘lsa kerak rangi oftob urgan xamakdek sap-sariq.<sup>1</sup>

Asardagi achinarli jihat esa bu kasallarning bari dorixonalarda sotiladigan oddiy dorilar: penetsillin, biomitsin va yurak dorilari bo‘lganligi edi. Ya‘ni, kasallar shifokorga borish o‘rniga folbinga borishlariyu, unga beradigan hisobsiz pullari va hayvonlar bo‘lishi, insonlarning puli yetmaganidan shifokorga bora olmaganligini ifodalashdir. Asar yumorist ruhda yozilgan bo‘lib, 1968-yilgi voqealarni ifodalab bergan.

Oppoq ro‘mol o‘ragan, keng yengli ko‘ylak kiygan yumshoqqina kampir kulimsirab qarshi oldi. Shu xotinning folbin ekaniga ishongim kelmasdi. Aynovniy, - dedi u yuzimdan o‘pib. - Muncha shirin bu bola! Ayvon vassajuftiga to‘rqovoq ilingan, to‘rqovoqdagi bedana sayramas, ammo hadeb sakrar, har sakraganda sholcha ustiga allaqanday don to‘kilar edi. Bedanani tomosha qilib o‘tirarkanman, ammam bo‘lgan voqeani tushuntirib berdi.<sup>2</sup>

U tashqi ko‘rinishda soddadil, pok va mehribon ayoldek tasvirlangan bo‘lsa-da, aslida bu obraz orqali yozuvchi xalq orasida ishonch qozonib, sodd insonlarni o‘z ta‘siriga oluvchi folbinlar tabiatini ochib beradi. Mazkur kampir bir tomondan, milliy qadriyatlarga xos ona siymosini eslatsa, ikkinchi tomondan, shu niqob ostida yashiringan yolg‘on, aldanchilik va jaholatni ifodalaydi. Folbinni Yoshi ulug‘ ayol sifatida tasvirlash orqali, muallif tashqi ko‘rinish va ichki mohiyat o‘rtasidagi ziddiyatni badiiy vositalar yordamida tasvirlab beradi.

Bedananing sayramasligi, ammo tinimsiz sakrab, har sakraganda don sachratishida ham chuqur bir ma‘no bor. Erkinligidan mahrum bo‘lgan va bir umr qavasga mahkum bo‘lgan erksiz qushchanning tabiiy ovozi yo‘q, go‘yoki jonsiz bir qushga aylanib qolgandek. Uning tinmay sakrab ton sochi ham oddiy xalqni o‘ziga jalb qila olgan ya‘nikim to‘kilgan donlar odamlarni aldab qafasga solganda ishlatiladigan hiyladek.

Voqealar rivojidan bizga ma‘lum bo‘lganidek, oybaldoqning folbin aytgan kimsada bo‘lmasligi “Folga ishonma, folsiz yurma” degan xalqimizdagi iboraga qaydarajada aniq javob bo‘la olishini ko‘rsatib beradi, yanikim, folga ishonmaslik rost gap bo‘lganidek, folsiz yurmaslik ham folning hech qanday foydasi yo‘qlini ochib beradi. Oybaldoqning boshqa joydan chiqqanligidan so‘ng hech bo‘lmaganida onasining va ammasining folga bo‘lgan ishonchini yo‘qota oldi.

Zamonaviy adabiyotshunos Ibrohim Haqqulov esa badiiy timsollarning ramziy qatlamiga urg‘u berib, shunday fikr bildiradi: “Haqiqiy badiiy obraz ko‘p qatlamli ma‘no tashiydi”. Bu

<sup>1</sup> <https://api.ziyounet.uz/uploads/books/29429/5464817167ccb.pdf>

<sup>2</sup> <https://api.ziyounet.uz/uploads/books/217947/5bf4fe637959c.pdf>

yondashuv asosida folbin obrazi “soxta haqiqat” va “ishonch illuziyasi” timsoli sifatida talqin qilinadi.<sup>3</sup>

Bu asar orqali ham yozuvchi o’sha davrdagi insonlarning ma’naviy darajasini ko’rsatib bera olgan. Odatda insonlar chorasiz vaziyatlarda folga borishadi. Bunda ham umidsizlik va ojizligini tan olmasdan o’z kuchiga ishonmay, nimadandir “mo’jiza” kutgan insonlar taqdiri ifodalangan.

Ustozlar an’anasini munosib davom ettirayotgan yosh ijodkor Bayram Ali o’zining” Bosiriq “qissasida folbin obraziga murojaat etar ekan, bu orqali davr ruhini, jamiyatdagi murakkab ijtimoiy muhitni hamda inson qalbining nozik va ziddiyatli kechinmalarini badiiy mahorat bilan yorqin ifodalay oldi.

Folbinlarning qiladigan ishlari insonlarning qiyin vaziyatdan “oson”chiqarib yuborish bo’lib, ammo Bayram Ali tasvirlagan obraz esa bir vaqtning o’zida tabobat vakili ham hisoblanadi. Aslida ovuldagi yolg’iz do’xtirimiz Bo’rining qushnochlardan qo’l olib fol ocha boshlagani, kasal ko’rish borasida uzoq yillik tajribaga ega folbin kampir. Fazilatning esa bemorlarga ukol-dori yozib berishni odat qilganiga ancha bo’lgan, ularning har ikkisi ovuldagilar ishonchini binoyiday oqlab kelishayotgan edi.<sup>4</sup>

Berilgan jumlada chuqur ramziy ma’no yashiringan bo’lib, unda jamiyatdagi muhim muammolar badiiy ifoda orqali yoritilgan. Asarda do’xtir Bo’rining fol ochishi va tajribali folbin kampir Fazilatning bemorlarga dori yozib berishi tasvirlanadi. Bu holat oddiy voqea emas, balki ramziy ma’noga ega bo’lib, unda bilm bilan jaholat, haqiqat bilan soxtalik o’rin almashgani ifodalangan.

Yozuvchi bu orqali kuchli kinoya yaratadi. Chunki aslida do’xtir kasalni davolashi, folbin esa fol ochishi kerak edi. Ammo ularning vazifalari teskarisiga o’zgargan holda tasvirlangan Eng e’tiborli jihati shundaki, bu g’ayritabiiy holatga qaramay, ular ovul aholisi ishonchini oqlab kelmoqda. Bu esa paradoksal vaziyatni yuzaga keltiradi.

Asar orqali muallif jamiyatdagi yana bir muammoni-odamlarning ko’r-ko’rona ishonchini tanqid qiladi. Odamlar kimning haqiqiy mutaxassis ekaniga emas, balki odat va ishonchga tayanadi. Natijada esa noto’g’ri tizim ham “to’g’ri”dek qabul qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur jumla orqali adib jamiyatda ilm va jaholat, haqiqat va soxtalik o’rtasidagi chegaralar yemirilib borayotganini, ijtimoiy ong esa bu holatni muammo sifatida emas, balki me’yor sifatida qabul qilayotganini badiiy va kinoyaviy shaklda ochib beradi. Bu esa asarni nafaqat ijtimoiy tanqid, balki falsafiy mulohaza darajasiga olib chiqadi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. <https://api.ziyounet.uz/uploads/books/29429/5464817167ccb.pdf>
2. Ibrohim Haqqulov - Adabiy tanqid maqolalari.
3. Bosiriq.Toshkent “Akademnashr”2024

<sup>3</sup> Ibrohim Haqqulov — Adabiy tanqid maqolalari.

<sup>4</sup> Bosiriq.Toshkent “Akademnashr”2024